

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

**TARMOQNING JADAL RIVOJI MAMLAKAT IQTISODIYOTI
BARQARORLIGINING MUHIM OMIL**

Qiyomov Yusuf To‘xtasin o‘g‘li

Xalqaro Innovatsion Universiteti

Iqtisodiyot va aniq fanlar kafedrasи mudiri

Shoymardonov Fazliddin Erali o‘g‘li

talaba

Jumayev Ruslan Samandar o‘g‘li

talaba

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika qurilish materiallari sanoatini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi, qurilish materiallari tarmog‘i mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratishda asosiy o‘rinni egallashi, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasining rivojlanishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: tarmog‘, materiallар, O‘zqurilishmateriallari, Ekspert, faoliyat, Bozor munosabatlari, assortment.

2016 yil 25 oktyabr kuni mamlakatimizda qurilish tarmog‘i sohasida tub burilish yasagan muhim hujjat tasdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika qurilish materiallari sanoatini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan qurilish materiallari ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, tarmoq korxonalarini modernizatsiya qilish, texnologik va texnik qayta jihozlash uchun xorijiy investitsiyalarni keng jalgan etish hamda uning eksport salohiyatini oshirish va ularda korporativ boshqaruв xalqaro standartlarini joriy etishga qaratilgan maqsadlarni amalga oshirish «O‘zqurilishmateriallari» aksiyadorlik jamiyati vazifalari sirasiga kiritildi.

Ta’kidlash joizki, qurilish materiallari tarmog‘i mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratishda asosiy o‘rinni egallashi kerak. O‘tgan yillar mobaynida O‘zbekistonda yangi sanoat ob’ektlari, turarjoylar, ta’lim va tibbiyot muassasalari va boshqa ijtimoiy-maishiy ob’ektlarni qurish hamda mavjudlarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib, ularda ilg‘or arxitektura va zamonaviy, yuqori texnologiyali qurilish materiallari qo‘llanildi. Bugun qurilish materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish va sohada barqaror narxlarni o‘rnatishning dolzarbliги va strategik ahamiyati Tashkent City va Samarkand City zamonaviy ishbilarmonlik markazlari, Nurafshon shahri, Toshkent xalqaro aeroporti, Toshkent halqa yo‘li, Yunusobod metro liniyasi, yo‘l o‘tkazgichlar, namunaviy va

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

xizmat turar joylari, kam ta'minlangan oilalar uchun uylarning qurilishi bilan chambarchas bog'liq.

Ekspertlar tomonidan barcha qurilish ishlarining umumiy qiymatida qurilish materiallari qiymatining ulushi qariyb 60 foizni tashkil etishi hisoblab chiqilgan. Yil sayin qurilish sur'atining oshib borishi qurilish materiallari ishlab chiqarishni rivojlanтирishni taqozo etmoqda. Bunda qurilish materiallari sifatli va arzon bo'lishi muhim sanaladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha turdag'i qurilish materiallari ishlab chiqarilmoqda. Qurilishda foydalaniladigan materialarning 95 foizi aynan mahalliy korxonalarda ishlab chiqarilayotganligi mamlakatimiz qurilish materiallari industriyasining rivojlanib borayotganligining yaqqol dalili. Mahalliy qurilish korxonalarida sement, shifer, asbotsement quvurlar, gips, ohak, yumshoq tom, quruq qurilish aralashmalari, bitum mastika, shisha mahsulotlar, keramik cherepitsa, yog'och-qirindi plitalari, gidroizolyatsiya va noruda materiallar, marmar, granit va boshqa turdag'i tabiiy toshlar, devor materiallari, elektrodlar ishlab chiqarilmoqda.

Sohadagi ijobiy o'zgarishlar shaharu qishloqlarda qad rostlayotgan binolarning mustahkamligini, qurilayotgan uy-joylarning aholi uchun hamyonbop bo'lismeni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Biroq, faoliyat barcha sohalarining isloh qilinishi tarmoqni yangilash va modernizatsiya qilish zaruratini ham taqozo etmoqda. Energiya tejovchi va zilzilabardosh innovatsion materiallar ishlab chiqarilib, qurilishda qo'llanilayotganligi ushbu tarmoqning rivoj topib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu tarmoq katta zaxiraga ega bo'lib, ulardan oqilona va samarali foydalanish sohani rivojlanтирishning keyingi istiqbollarini belgilab beradi.

Shu o'rinda qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasining rivojlanish ko'rsatkichlariga e'tibor qaratish joiz. Masalan, 2017 yilda «O'zqurilishmateriallari» AJ tarkibiga kirgan korxonalar tomonidan 3,5 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi, bunda o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 108 foizni tashkil qildi. Agar 2016 yilda 120 turdag'i qurilish materiallari ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2017 yilda ushbu ko'rsatkich 180 turdan oshib ketdi. 2017 yilda sement – 7768 ming t yoki 124,8%, devor materiallari – 74 mln. dona yoki 106,2% mahsulot ishlab chiqarildi. 2018 yil yakunlariga ko'ra 4,6 trln. so'm miqdoridagi qurilish-sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va o'sish sur'ati 104 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Joriy yilning 9 oyida 3,5 trln. so'mdan ortiq hajmdagi qurilish materiallari ishlab chiqarildi va o'sish sur'ati 2017 yilning shu davriga nisbatan 102,2 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiyotning har bir tarmog'ida bo'lgani kabi qurilishda ham investitsiya loyihibarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish borasida keng ko'lamlı ishlar davom etmoqda. Yurtboshimizning 2018 yil 1 avgustdagи «O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni investorlarni qo'llab-quvvatlash va ular faoliyati uchun sharoit yaratishda muhim qadam bo'ldi. Bozor

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

munosabatlari, ichki va tashqi bozordagi raqobat investitsiya loyiha-larini amalga oshirishda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirishni taqazo etadi. «O'zqurilishmateriallari» AJda «yo'l xaritalari» ishlab chiqilib, investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ta'minlash uchun mas'ul shaxslar va muayyan muddatlar belgilanmoqda. Har bir loyiha bo'yicha tarmoq grafiklari tasdiqlanadi.

O'tgan yili keramik plitka, santexnika mahsulotlari, keramogranit, sendvich-panellar, yumshoq tom materiallari, kompozit armatura, suyuq gulqog'ozlar, issiqlikni o'tkazmaydigan materiallar kabi o'ndan ortiq yangi turdag'i import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 23 dekabrdagi Investitsiya dasturiga muvofiq 2017 yilda 72,4 mln. AQSh dollari qiymatidagi mablag'larni o'zlashtirish, shu jumladan, 15,3 mln. AQSh dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalg qilish hisobidan 13 ta loyihani amalga oshirish, 38,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi to'rtta ob'ektni foydalanishga topshirish va 217 ta yangi ish o'rnini yaratish nazarda tutilgan edi. Yakunda amalda 73,3 mln. AQSh dollari o'zlashtirildi, bu prognozga nisbatan 101,3 foizni tashkil qiladi. Shuningdek, Surxondaryo viloyatidagi «Termizta'mnoti» XKda g'o'zapoyadan yog'och-qirindi plitalari ishlab chiqarish, «Ohangaronsement» AJda texnologik liniyani modernizatsiya qilish, «Fruits Season Navoiy» MChJda yiliga 60 ming kub. m quvvatiga ega bo'lgan noruda qurilish materiallarining turli fraksiyalarini ishlab chiqarish hamda «Qizilqumsement» AJda o'rtacha maydalash konusli maydalash mashinasini o'rnatgan holda ikkilamchi maydalash tizimini modernizatsiya qilish investitsiya loyihalari amalga oshirildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Asosiy maqsadimiz – mamlakatimizning rivojlanishini, xalqimiz farovonligini ta'minlashdan iborat» deya ta'kidlaydi. Buning uchun avvalo, iqtisodiyot raqobatbardosh bo'lishi, mahsulot esa o'zimizda ishlab chiqarilishi kerak. Ushbu maqsadda mahalliylashtirish dasturlari ishlab chiqilmoqda. Mahalliylashtirish dasturlari ishlab chiqaruvchilar o'rtasida kooperatsion aloqalarning rivojlanishiga xizmat qilib, mahsulot sifati oshishiga va import o'rnini bosuvchi, eksportbop mahsulotlar assortimenti kengayishiga xizmat qilmoqda. 2017 yil yakunlariga ko'ra mahalliylashtirish dasturlariga muvofiq «O'zqurilish-materiallari» AJ tomonidan 103,2 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chi-qarildi, bu prognozga nisbatan 136,8 foizni tashkil qiladi. Keramikadan tayyorlangan santexnika, qirqiladigan tozalash abraziv doiralar, kompozit armatura, elektr cho'tkalar, kaprolon mahsulotlari yangi texnologiya – 3D printerni qo'llagan holda qoplama keramik plitka ishlab chiqarish shular jumlasiga kiradi.

Avval chetdan keltiriladigan mahsulot turlarini o'zimizda ishlab chiqarish va shu tariqa, import hajmini qisqartirish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish hisobidan 39,4 mln. AQSh dollari (prognoz ko'rsatkichiga nisbatan 135,3%) miqdoridagi valyuta mablag'lari tejaldi.

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

Joriy yilda «O‘zqurilishmateriallari» AJda 120,3 mln. AQSh dollari qiymatidagi kapital qo‘yilmalarni o‘zlashtirgan holda sakkizta investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan. Bu mamlakatimiz Prezidentining 2018 yil 19 iyuldagagi «2018–2019 yillarda investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorida nazarda tutilgan. 2018 yilning 9 oyi yakunlariga ko‘ra 78,7 mln. AQSh dollari qiymatidagi investitsiyalar o‘zlashtirildi, bu prognoz ko‘rsatkichiga nisbatan 120,8 foizni tashkil qiladi.

Mahalliy lashtirish dasturlariga muvofiq 2018 yilda 132,5 mlrd. so‘m qiymatidagi mahsulot ishlab chiqarish kutilmoqda. Bu ko‘rsatkichga erishish qiyin bo‘lmaydi, chunki joriy yilning 9 oyida 115,9 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi, bu prognoz ko‘rsatkichiga nisbatan 2,7 marta ko‘pdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 sentyabrdagi qarori bilan 2016–2020 yillar mobaynida umumiy qiymati 1,23 mlrd. AQSh dollarini (shu jumladan: o‘z mablag‘lari – 307,3 mln. doll., banklar kreditlari – 313,4 mln. doll. va jalb eilgan xorijiy investitsiyalar – 609,4 mln AQSh dollari) tashkil qiladigan 80 ta loyihani amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Amalda 2016 yilda 160,4 mlrd. AQSh dollari umumiy qiymatidagi 37 ta loyiha amalga oshirildi, shundan o‘z mablag‘lari 93,6 mln. AQSh dollarini, kredit moliyaviy mablag‘lari 44,1 mln. AQSh dollarini va xorijiy investitsiyalar 22,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. 2017 yilda 23 ta loyiha amalga oshirilib, 108,4 mln. AQSh dollari qiymatidagi kapital qo‘yil-malar o‘zlashtirildi. Ushbu vazifani bajarish maqsadida 2018 yilda «O‘zqurilishmateriallari» AJ tomonidan 207,3 AQSh dollari qiymatidagi 15 ta loyiha amalga oshirilishi kerak edi. Amalda o‘tgan 9 oy mobaynida rejalashtirilgan moliyaviy mablag‘larning 89,3 foizi o‘zlashtirildi, bu 185,1 mln. AQSh dollarini tashkil qiladi.

Tashqi bozorda korxonalarimiz mahsulotlariga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston bozorlarida korxonalarimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan keramik plitka, santexnika, quruq qurilish aralashmalari, gipsokarton, pishiq g‘isht, tabiiy toshdan qoplama mahsulotlar, ohak, polipropilen quvurlar, fittinglarga talab ortib bormoqda. 2017 yil yakunlariga ko‘ra, qurilish materiallari eksporti 113,1 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. 2018 yilda 55 mln. AQSh dollari qiymatidagi mahsulotlarni eksport qilish ko‘zda tutilgan. O‘tgan 9 oyda eksportning haqiqiy hajmi 40 mln. AQSh dollarini yoki prognozga nisbatan 100,4 foizni tashkil qildi.

Korxonalarda eksport nomenklaturasi va geografiyasini kengaytirish ishlari davom etmoqda. Joriy yilda eksport qilinadigan tovarlar assortimenti 40 nomdan 45 nomgacha oshdi. Yangilangan ro‘yxatdan ilgari eksport qilinmayotgan santexnika va keramik plitka tarlari, asbestos mahsulotlari, sement va me’moriy oyna joy oldi. Mahsulotlarimizni import qiluvchi mamlakatlar qatoriga Tojikiston va Afg‘oniston qo‘shildi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ishbilarmonlik aloqalari va o‘zaro foydali hamkorlikni o‘rnatish doirasida turli

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

qurilish materiallari namunalari Pokistonning yirik «Baxriya-Taun» kompaniyasiga, pardozlash toshlari namunalari Belorus korxonalariga, bazalt tosh namunalari Hin-diston kompaniyalariga yubo-rildi.

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilarining faoliyatini rag‘batlantirishga doir yangi chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan. Qurilishni faollashtirish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, qat’iy tejash rejimini joriy etish, texnologik jarayonlarni ratsionallashtirish, ishlab chiqarishning material sarfini va energiya sarfini kamaytirish yo‘li bilan ishlab chiqarish xarajatlarini keskin qisqartirish hisobidan tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirish dolzarb vazifalar sirasiga kiritildi.

Ish bilan ta’minalash ko‘rsatkichlari ham ijobiy dinamikaga ega: 2017 yilda 1467 nafar kishi ishga joylashtirildi, 2018 yilda 1468 ta yangi ish o‘rni, shu jumladan, investitsiya dasturlarini amalga oshirish hisobidan 178 ta ish o‘rni, tarmoqni rivojlantirish dasturini amalga oshirish hisobidan 1213 ta ish o‘rni va kasanachilikni rivojlantirish dasturini amalga oshirish hisobidan 77 ta ish o‘rni barpo etildi. Joriy yil boshidan buyon o‘tgan 9 oy mobaynida 831 ta yangi ish o‘rni barpo etildi, bu prognoz ko‘rsatkichiga nisbatan 104,7 foizni tashkil qiladi.

Hozirgi vaqtda qurilish materiallari tarmog‘i iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanib borayotgan yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilar ekan, uni mustahkamlash – O‘zbekiston sanoatini rivojlantirish strategiyasining muhim asosi bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali qayta ishlash yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlari uchun raqobatbardosh muhitni shakllantirish, ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatdoshligiga erishish, eksport tarkibi hamda geografiyasini diversifikatsiya qilish, shuningdek, hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish orqali milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minalashga qaratilgan islohotlar ancha faollandashdi.

Buni quyidagi dolzarb masalalar bilan izohlash mumkin: birinchidan, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, uning tarmoqlarida ishlab chiqarish sur’atlari o‘sishiga erishish mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ikkinchidan, jahon bozoridagi keskin raqobat sharoitida milliy ishlab chiqaruvchilarning yuqori sifatli mahsulotlar bilan jahon bozorlariga chiqishini faollashtirish zaruriyati mavjud. Uchinchidan, ilmiy sig‘imi yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan tendensiyalarning rivojlanishi hamda shunga muvofiq tarzda sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashda milliy iqtisodiyot doirasida doimiy ravishda zamonaviy texnologiyalar hamda innovatsiyalarni joriy etish talab qilinadi.

Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish ko‘p jihatdan iqtisodiyot yo‘nalishlari hamda sohalarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini barpo etish bo‘yicha qulay shart-sharoitlarni yaratish bilan bevosita bog‘liq. Shu bois mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun uning tarmoqlari rolini, ayniqsa, yuqori qo‘srimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 1.International Monetary Fund, Global Financial Stability Report, April 2022, pp. 3-4.<https://www.imf.org/en/Publications/GFSR/Issues/2022/04/19/globalfinancial-stability-report-april-2022>
2. Karimov LA. «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida». T.; «O‘zbekiston» 1996.
3. Vahobov AV., Ibroximov AT., Ishonqulov N.F. «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». Darslik. T.; «Sharq», 2005 y.
4. Karimov A va boshq. Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: «Sharq» nashriyot -matbaa akdiyadorlik kompaniyasi . 2004, 592
5. Internet saytlari
6. <http://wwwJex.uz>
7. <http://www.Ziyo NET liZ>
8. <http://www.stat.uz>
9. <http://www.tfi.uz>